

SHE'RIY TARJIMANING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Iskandar Sattibaev

Andijon shahar 1- son ixtisoslashgan maktab

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14533305>

Abstract: The research intends to examine the specific features of poetical translation from English into Uzbek. It also focuses on the methods of achieving a poetical effect similar to the original in the language of translation.

Key words: poetics, poetical translation, discourse, poetical discourse, context.

Kalit soʻzlar: she'riyat, she'riy tarjima, diskurs, she'riy diskurs, kontekst.

Kirish:

She'riyat tili, o'zining funksional vasifasidan kelib chiqqan holda so'z san'atining alohida turi hisoblanadi. Poetik diskurs tadqiqi, boshqa san'at turlarini o'rganish kabi, uning materialini va uslublarini aniqlashni talab qiladi, zero shu unsurlar ishtirokida she'riy asar yaratiladi. Ushbu jihatlarining tahlili she'riy matn o'quvchisi (tinglovchisi) hamda uning muallifi o'rtasidagi o'zaro munosabatni belgilab beradi.

Modomiki she'riyat tilining asosiy vazifasi adresantga estetik hamda emotsional ta'sir ko'rsatish ekan, badiiy tarjima jarayonida ham tarjimon o'z oldiga asliyat matnida nazarda tutilgan kommunikativ maqsadni muvaffaqiyatli yetkazib berish tamoyiliga amal qilgan holda, muallif nazarda tutgan ta'sirchanlik darajasini saqlab qolish vazifasini qo'yishi muhimdir.

Zero, badiiy tarjimada mazmun va shakl uyg'unligining o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, asliyat bilan tarjimada matn ham shaklan ham mazmunan bir-biriga monand bo'lishi kerak. Asar shakl va mazmun birligining saqlanishi uning tarjima tili imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatli qayta yaratilishi deganidir. Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun o'zga tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Tarjimada adekvatlikka erishish uchun asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlab olish lozim¹.

Qolaversa, poetik janrlar tarjimasiga xos bo'lgan fonetik xususiyatlar, leksik resurslar, uslubiy bo'yoqdorlik va nutqiy tuslanishlar, umumiy ohang unsurlari, lisoniy mezonlar, milliylik, tarixiy koloritlarni saqlash barobarida muallif mahoratining alohida belgilariga e'tibor qaratish tarjimashunoslik oldida turgan muhim masalalardir. Chunki aynan badiiy niyatning tarjimadagi tajassumini aniqlash bu ayni paytda asliyat muallifining poetik mahoratini ham anglash imkonini beribgina qolmasdan, shu bilan birga badiiy tarjimaning aksiologik jihatlarini to'liq ochib beradi².

Ko'rinadiki, badiiy tarjima va ayniqsa she'riy matn tarjimasini alohida murakkablik hamda tarjimon uchun mashaqqat manbaidir. Bunga sabab – tarjimon uchun nafaqat muallif ifodalashga uringan ma'no tovlanishlarini qayta tiklash, balki asliyatga yaqin she'riy asarning matn tuzilishi hamda undagi ohangdorlikni tarjima tilida ham qayta tiklash vazifasidir.

Shu o'rinda, she'riy asarlarni chet tillariga tarjima qilish borasida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, Drayden she'riyat tarjima qilinadi, ammo tarjimon bir vaqtda shoir ham bo'lishi kerak, degan fikrni ta'kidlaydi. V. Benjamin tarjimada yo'qotishlarni bo'lishi oddiy

¹ Dosbayeva N. Badiiy tarjimada uslub. – Toshkent. Fan. 2016. – B. 65

² Salimova D.A. She'riy tarjimada poetik mahorat. – Jizzax. 2021. – B. 30

holat, aksincha, matnning yaratilishi bilan erishiladigan jihat borki, bu shunchaki asl nusxaning bir ko‘rinishi bo‘lmaydi, balki asliyat tiliga teng keladigan qobiliyatga ega bo‘ladi. Shunga ko‘ra, “tarjimonnning vazifasi, u tarjima qilayotgan tilga ta‘sirini aniqlab olishdan iborat bo‘lib, unda asl nusxada aks-sado paydo bo‘ladi³.”

Tabiiyki, bunday murakkab ishni to‘laqonli amalga oshirish hamda asliyatdagi matnning mohiyatini saqlagan holda tarjima tiliga o‘girish o‘zi xos mas‘uliyatli hamda sharaflil vazifa hamdir. Chunki, tarjimalarni mahorat jihatdan tekshirish, o‘rniga tushmagan, xato qo‘llangan, yo qofiya talabi, o‘zga tillar qoidalariga muvofiq kelmaydigan, nasriy asar, she‘r mazmunini buzadigan, muallif fikrini o‘zgartiradigan jihatlar mavjudligi mutaxassislar oldidagi vazifalardan biri⁴.

Mazkur fikrlarga misol o‘laroq, O‘zbekiston xalq shoiri Erkon Vohidov ijodidan bir parchaga nazar tashlasak. O‘zbek tilida aksariyat holatda birlik ko‘plik o‘rnida yoki qism butun o‘rnida keladi⁵. Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasida bir kishiga emas, balki butun o‘zbek xalqiga, o‘zbeklarga qaratilgandir:

*O‘zbekim deb keng jahonga
ne uchun madh etmaysan!
O‘zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, O‘zbekim.
Men buyuk yurt o‘g‘lidurman,
Men boshar farzandiman,
Lekin avval senga bo‘lsam
Sodiq o‘g‘lon, o‘zbekim.*

Misioldan ko‘rinib turibdiki, shoir bir so‘z bilan xitob qilish orqali butun millatni nazarda tutmoqda. Qolaversa, o‘zining ushbu millatga oid ekanligini ko‘rsatish maqsadida “-im” egalik qo‘shimchasini qo‘llanmoqda. Bundan tashqari she‘r ohangidan shoir qalbidagi zavq-u shavq, iftihor tuyg‘ularini ilgash mumkin. O‘z navbatida mazkur qasidani har qanday boshqa tilga tarjima qilishga bel bog‘lagan tarjimondan ushbu unsurlarni tarjima tilida ham benoqson ifodalab berish talab etiladi.

Yuqoridagi fasllarda poetik diskurs, uni qayta tiklash (rekonstruksiya) masalasi hamda poetik diskursning kontekst, leksika va nazmiy tuzilish kabi jihatlariga to‘xtalib o‘tdik. Navbatdagi vazifamiz she‘riy asar muallifining o‘ziga xos, individual uslubi hamda uni tarjima tilida qayta tiklashda tarjimonnning yondashuvini tadqiq qilishdan iborat bo‘ladi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizday, poetik diskurs bu muallif va uning o‘quvchisi (nega o‘quvchi degan so‘zni qo‘shilganligini aytib ketish kerak) tomonidan poetik matn vositasida vujudga keltiriluvchi lisoniy va shuuriy muhitdir. Shundan kelib chiqib, poetik diskursning

³ I. Tukhtasinov. Theoretical foundations of poetic translation. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics. – B. 2
Quotes “Benjamin W. The Task of the Translator, in: Illuminations. New York: Harcourt, Brace & World Inc. 1968. – P. 73.”

⁴ Saidaxmedova N.S. Muhammad Yusufning tarjimalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(13). Dec. 2023. – B. 171

⁵ Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent. “O‘qituvchi”. 1995. – B. 25

uch xil lingvostilistik jihatlarini ajratish mumkin. Ular: lingvistik, kommunikativ va kognitiv jihatlardir⁶.

Poetik diskursning lisoniy jihatlari o`z nomi bilan she`rni yozishda, talqin va tarjima qilishda qo`llaniladigan til materiallaridan iborat ekan, lingvostilistik tahlilda ularning muhimlik darajasi ortadi. Zero tarjimon she`riy asarni o`qib, uni adekvat tarzda tushunishi hamda kerak bo`lganda boshqa tilga tarjima qila olishi uchun avvalo asliyatda qo`llanilgan lingvistik vositalar bilan yaxshi tanish bo`lishi talab etiladi.

References:

1. Chendey N.V. Linguistic and conceptual features of poetic discourse // Development of philology and linguistics at the modern historical period. – P. 135
2. Dosbayeva N. Badiiy tarjimada uslub. – Toshkent. Fan. 2016. – B. 65
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent. “O`qituvchi”. 1995. – B. 25
4. Quotes “Benjamin W. The Task of the Translator, in: Illuminations. New York: Harcourt, Brace & World Inc. 1968. – P. 73.”
5. Saidaxmedova N.S. Muhammad Yusufning tarjimalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(13). Dec. 2023. – B. 171
6. Salimova D.A. She`riy tarjimada poetik mahorat. – Jizzax. 2021. – B. 30
7. Tukhtasinov I. Theoretical foundations of poetic translation. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika – Зарубежная лингвистика и лингводидактика – Foreign Linguistics and Linguodidactics. – B. 2

⁶ Chendey N.V. Linguistic and conceptual features of poetic discourse //development of philology and linguistics at the modern historical period. – P. 135